

4-DARS. OLTIN KUZ

Dars maqsadlari:

- tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash;
- tabiiy materiallardan foydalanib applikatsiyalar yaratish qobiliyatini rivojlantirish;
- tabiiy materiallardan applikatsiyalar yaratishda xayol va tasavvurni qo'llash mahoratini o'stirish.

Kerakli materiallar: oq karton, rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalamlar, kuzgi barglar, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi kuzgi barglardan applikasiya tayyorlash ekanligini aytadi.

O'qituvchi shunday savollar beradi:

1. Sizningcha, kuzgi barglar bilan ishlash nima uchun oson bo'lmasligi mumkin?
2. Qiyinchiliklarga qaramay, barglar bilan ishlash sizga nima uchun yoqadi?

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi odatdagi tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnoma berilgan.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

Avvalo, o'quvchilarga oq qog'ozga yuz chizish, so'ngra rangli qog'ozdan og'izni qirqib olib yopishtirish kerakligi aytiladi. Keyingi bosqichda esa kuzgi barglarni yopishtirish orqali soch turmagini tasvirlash lozim bo'ladi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

O'qituvchi keyingi darsga o'quvchilar tabiiy materiallar tayyorlashlari kerakligini ma'lum qiladi.

O'qituvchi savollar beradi:

1. Tabiiy materiallar nima? (*Barglar, g'umbaklar, sholg'omlar, kashtanlar, urug'lar, yong'oqlar, toshlar*).

2. Tabiiy materiallarni qayerdan yig'ish mumkin? (*Bog'dagi yoki uy yonidagi daraxtlar ostidan*).

O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil ravishda yoki kattalar bilan birgalikda internet tarmog'idan foydalanib tabiiy materiallardan tayyorlangan buyumlarni ko'rib chiqishni tavsiya qiladi.

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarga kuzgi barglardan applikasiya tayyorlashni o'rgatish;
- o'quvchilarning fantaziyasi va tasavvurini rivojlantirish.

5-DARS. TABIIY MATERIALDAN YASALGAN BUYUMLAR

Dars maqsadlari:

- qo'l mehnati orqali fantaziya va tasavvurni namoyon etish qobiliyatini rivojlantirish;
- tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlash mahoratini o'stirish;
- tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda tasavvur va fantaziyani qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalamlar, tabiiy materiallar, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.